

**“TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHDA
KADRLARNING ROLI” MAVZUSIDAGI MA’RUZA TEZISLARI**

M. Mutalova -

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maruza te’zislarida O’zbekistonda banklarni muvaffaqiyatli transformatsiyalashda kadrlarning roli ochib berilgan va relajakda transformatsiyalashni takomillashtirish bo’yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kiritilgan.

Kalit so’zlar: raqamlashtirish, transformatsiyalash, bank texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, bosqaruv modellari.

XXI - asr jamiyat hayotining barcha jabhalari, shu jumladan iqtisodiyotni raqamlashtirish asosida transformatsiyalash asri hisoblanadi.

O’z navbatida shuni ta’kidlash lozimki iqtisodiyotning muhim tarmog’i bo’lgan bank soxasini transformatsiyalashda fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish katta iqtisodiy va ijtimoiy samara beradi.

Iqtisodiyotning globallasuvi, siyosiy voqealar tez o’zgarishining iqtisodiy oqibatlarini, yangi texnika va texnologik siyosatga o’tish, raqobatning va davlatning tartibga solish rolining kuchayishi, fors-major holatlari (pandemiya, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, sanksiyalar siyosati) va bir qator boshqa muammolar, bank tizimidan doimiy o’zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishning maqbul usullarini topishni talab qiladi, chunki mijozlarning tez o’sib va kengayib borayotgan ehtiyojlarini eng kam xarajat va eng qisqa vaqt ichida tizimli ravishda qondirish, xizmat ko’rsatish sifatini oshirish va sur’atini tezlashtirishni talab etadi.

Transformatsiyalashni o’z vaqtida va samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olib, mamlakatimiz raxbariyati transformatsiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qonuniy asos yaratishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Masalan, mamlakatimiz Prezidentining 2018 yil 9

yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va uning muhim tarmog‘i bo‘lgan bank soxasida raqamlashtirish jarayonlari boshlangan.

Bu sohada shuningdek 2020 yil 5 oktyabrda O‘zbekiston Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022 yil 12 oktyabrda “Elektron imzo to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va 2024 yilning 14 oktyabrida qabul qilingan O‘zbekiston Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilgacha rivojlantirish Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori kabi qonunchilik hujjatlari asosida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada faol rivojlantirish, shuningdek iqtisodiyotning barcha soxalaari va tarmoqlarida ilg‘or axborot-kommunikatsion texnologiyalar va sun‘iy intellektdan keng foydalanish boyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ammo, banklar jamoalari a‘zolarining hammasi ham bank maxsulotlari va hizmatlarini raqamlashtirish, yangi bank texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar hamda boshqaruvga innovatsion yondashish mohiyati bo‘yicha maxsus bilim va tajribaga ega emasliklari natijasida, yuqoridagi amalga oshirilayotgan ijobiy tadbirlarning mohiyati va samaradorligini to‘g‘ri tushunmasliklari kabi sabablar O‘zbekiston Respublikasi banklarini transformatsiyalashni tez va samarali amalga oshirishga xalaqit bermoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston banklarini raqamlashtirish orqali muvaffaqiyatli transformatsiyalash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri bu raqamlashtirish asoslarini puxta biladigan, zamonaviy bank va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, boshqaruvning samarali modellariga yangicha yondaha oladigan kadrlar bilan ta‘minlash uchun kelajakda banklarni rivojlantirishda bank faoliyatini raqamlashtirish orqali transformatsiyalashtirishdan boshqa yo‘li yo‘qligini e‘tiborga olib:

1) Oliy o'quv yurtlarida "Bank ishi" mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalariga "Banklarni raqamlashtirish va transformatsiya qilish" kursini kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida mustaqil fan sifatida kiritish lozim.

2) Banklar o'quv markazlarida xodimlarining malakasini tizimli ravishda oshirib borish va kerak bo'lgan xollarda masofaviy o'qitishni tashkil etish lozim.

3) Banklarni raqamlashtirish va transformatsiya qilish bo'yicha yangi innovatsion dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish natijasida bank veb-saytlari orqali bank tomonidan yaratilgan yangi mahsulotlarni doimiy ravishda tarqatish va mijozlarga tushuntirish tizimi takomillashtirildi, shuningdek, mijozlarni (tadbirkorlarni) yangi bank mahsulotlaridan foydalanish maqsadida sun'iy intellekt platformasidan foydalanish va undan mijozlar foydalanishi bilan masofaviy o'qitish va tanishtirish tizimi soddalashtirish lozim.

Takliflarimizni amalga oshirish banklar faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarini kamaytirish va mijozlarning sodiqligini osirish, respublika bank biznesining rentabellini osirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ijobiy ta'sir korsatadi.